

O'ZBEK TAZKIRANAVISLIGI TARIXINI ILMIY TADQIQ ETISHDA AKADEMIK BOTIRXON VALIXO'JAYEVNING XIZMATLARI

Xasanova Dilshoda Abdug'aniyevna

Sharof Rashidov nomidagi SamDU tadqiqotchisi

holidahasanova@gmail.com

ORCID 0009-0009-8985-5630

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolamizda o'zbek tazkiranavisligi tarixini ilmiy tadqiq etishda akademik Botirxon Valixo'jayevning ilmiy faoliyati va xizmatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda olimning mumtoz adabiyot tarixini o'rganish, tazkira va boshqa tarixiy-adabiy manbalarni ilmiy muomalaga kiritish, ularning ma'lumotlarini qiyosiy va tanqidiy asosda baholash borasidagi yondashuvlariga alohida e'tibor qaratiladi. Botirxon Valixo'jayevning "O'zbek adabiyotshunosligi tarixi" asari tazkiranavislik tarixini tizimlashtirishdagi muhim ilmiy manba sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiy, Hasanxoja Nisoriy, Mutribiy Samarqandiy kabi tazkiranavislarning adabiy-tanqidiy qarashlarini o'rganishdagi olimning hissasi yoritiladi. Tadqiqotda Valixo'jayevning Lutfiy ijodiga oid izlanishlari misolida tazkira ma'lumotlarini badiiy matn, tarixiy manbalar va boshqa ilmiy tadqiqotlar bilan qiyoslash tamoyili ochib beriladi. Olimning matnshunoslik, manbashunoslik va adabiy-tanqidiy tahlilni o'zaro uyg'unlashtirgan ilmiy metodi tazkiranavislik tarixini chuqurroq anglash imkonini bergani asoslanadi.

Kalit so'zlar: *Tazkiranavislik, tazkira, Botirxon Valixo'jayev, o'zbek adabiyotshunosligi, mumtoz adabiyot, manbashunoslik, matnshunoslik, navoiyshunoslik.*

Abstract

This research article analyzes the scholarly activities and contributions of Academician Botirkhon Valikhodjaev to the scholarly study of the history of Uzbek tazkira writing. Particular attention is paid to the scholar's approaches to studying the history of classical literature, introducing tazkiras and other historical and literary sources into scholarly circulation, and evaluating their information on a comparative and critical basis. Botirkhon Valikhodjaev's work History of Uzbek Literary Studies is considered an important scholarly source for systematizing the history of tazkira writing. The article also highlights the scholar's contribution to the study of the literary and critical views of such tazkira writers as Davlatshah Samarqandi, Alisher Navoi, Hasanxoja Nisori, and Mutribi Samarqandi. Using Valikhodjaev's research on Lutfi's literary works as an example, the study reveals the principle of comparing information from tazkiras with literary texts, historical sources, and other scholarly studies. It substantiates that the scholar's research

method, which integrates textual criticism, source studies, and literary-critical analysis, has made it possible to gain a deeper understanding of the history of tazkira writing.

Keywords: *tazkira writing, tazkira, Botirkhon Valikhodjaev, Uzbek literary studies, classical literature, source studies, textual criticism, Navoiy studies.*

Аннотация

В данной научной статье анализируется научная деятельность и вклад академика Ботирхона Валиходжаева в научное исследование истории узбекской тазкиранавистики. Особое внимание уделяется подходам учёного к изучению истории классической литературы, введению тазкира и других историко-литературных источников в научный оборот, а также сравнительной и критической оценке содержащихся в них сведений. Труд Ботирхона Валиходжаева «История узбекского литературоведения» рассматривается как важный научный источник в систематизации истории тазкиранавистики. Освещается также вклад учёного в изучение литературно-критических взглядов таких тазкиранависов, как Давлатишах Самарканди, Алишер Навои, Хасанходжа Нисори и Мутриби Самарканди. На примере исследований Валиходжаева, посвящённых творчеству Лутфи, раскрывается принцип сопоставления сведений тазкира с художественными текстами, историческими источниками и другими научными исследованиями. Обосновывается, что научный метод учёного, основанный на органическом сочетании текстологии, источниковедения и литературно-критического анализа, позволил глубже осмыслить историю тазкиранавистики.

Ключевые слова: *тазкиранавистика, тазкира, Ботирхон Валиходжаев, узбекское литературоведение, классическая литература, источниковедение, текстология, навоиведение.*

Kirish. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini izchil va ilmiy asosda yoritishda tazkiralar alohida manbaviy ahamiyatga ega. Ularda muayyan davrda yashab ijod qilgan shoir va adiblarning hayoti, ijodiy faoliyati, adabiy muhitdagi mavqei, asarlariga berilgan baholar hamda ular bilan bog‘liq turli tarixiy-adabiy ma‘lumotlar mujassamdir. Shu jihatdan tazkiralar faqat ijodkorlar tarjimai holini qayd etuvchi manba bo‘lib qolmay, balki muayyan davrning adabiy-estetik qarashlari, ijodiy an‘analari va adabiy muhitini tiklash imkonini beruvchi muhim ilmiy manba sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, XV–XVI asrlarda yaratilgan tazkiralar o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixining shakllanishi va taraqqiyotini o‘rganishda beqiyos qiymatga ega.

O‘zbek tazkiranavisligi taraqqiyotida Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”si, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”i singari asarlar alohida o‘rin tutadi. Mazkur manbalarda davr adabiy muhitining vakillari haqida turli hajm va mazmundagi ma‘lumotlar berilib, ijodkorlarning badiiy salohiyati, adabiy jarayondagi

mavqei va ayrim asarlari haqida muhim mulohazalar bildirilgan. Keyingi davr adabiyotshunosligi oldidagi muhim vazifalardan biri ana shu tazkiraviy ma'lumotlarni ilmiy jihatdan tizimlashtirish, ularning tarixiy ishonchliligini tekshirish va boshqa manbalar bilan qiyoslashdan iborat bo'ldi. Mazkur yo'nalishning taraqqiyotida akademik Botirxon Valixo'jayevning ilmiy merosi alohida ahamiyat kasb etadi. Olimning ilmiy izlanishlarida tazkiralar alohida manba sifatida qaralib, ularda qayd etilgan ma'lumotlar boshqa tarixiy va adabiy manbalar bilan qiyosiy o'rganildi. Uning "O'zbek adabiyotshunosligi tarixi" asarida Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiy, Hasanxoja Nisoriy, Mutribiy Samarqandiy, Vola Dog'istoniy va Rahmatullo Vozeh kabi ijodkorlarning adabiy-tanqidiy qarashlari umumlashtirilgani olimning tazkiranavislik tarixini tadqiq etishdagi muhim xizmatlaridan biridir.

Adabiyotlar sharhi. Botirxon Valixo'jayevning ilmiy yondashuvida manbaga tayyor haqiqat sifatida munosabatda bo'lish emas, balki uning ma'lumotlarini tekshirish, turli manbalar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash va dalillar asosida xulosa chiqarish tamoyili ustuvorlik qiladi. Bu jihat, ayniqsa, olimning Lutfiy ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlarida yaqqol ko'rinadi. U shoir hayoti va ijodiga doir ma'lumotlarni Navoiy asarlari, "Funun ul-balog'a" singari manbalar hamda Lutfiy devonidagi badiiy matnlar bilan qiyoslab, bahsli masalalarga ehtiyotkorlik va ilmiy xolislik bilan yondashadi. Olimning tazkira ma'lumotlarini badiiy matn bilan bog'lab o'rganishi uning tadqiqotchilik metodining muhim jihatlaridan biridir. Jumladan, Lutfiy g'azallarini tahlil qilish jarayonida shoirning poetik mahorati, obrazlar tizimi, so'z qo'llash san'ati, janr xususiyatlari va badiiy vositalariga e'tibor qaratiladi. Ayrim matnlardagi xatolarni aniqlab, ularning to'g'ri variantini mazmun, mantiq, vazn va badiiy yaxlitlik asosida tiklashga intilishi esa olim faoliyatida tazkiranavislik bilan matnshunoslikning uzviy bog'langanini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Botirxon Valixo'jayev ilmiy merosining yana bir muhim jhati shundaki, u tazkira ma'lumotlarini muayyan davr adabiy muhitidan ajratib o'rganmaydi. Alisher Navoiy, Lutfiy, Husayn Boyqaro, Abdurahmon Jomiy, Shayximbek Suhayliy va boshqa ijodkorlar faoliyatini o'zaro adabiy aloqalar, ijodiy ta'sir va an'ana davomiyligi nuqtayi nazaridan talqin qiladi. Shu orqali tazkiraning individual shoir haqidagi ma'lumotlar yig'indisi emas, balki butun bir adabiy jarayonni anglashga yordam beruvchi manba ekanligini namoyon etadi. Shu nuqtayi nazardan, akademik Botirxon Valixo'jayevning ilmiy faoliyatini o'zbek tazkiranavisligi tarixini o'rganish doirasida maxsus tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir. Olimning tazkira manbalariga munosabati, ularni qiyosiy-tanqidiy o'rganish usullari, tazkiraviy ma'lumotlarni badiiy matn va boshqa tarixiy manbalar bilan tekshirish tajribasi o'zbek adabiyotshunosligida manbashunoslik va matnshunoslik madaniyatining rivojiga xizmat qilgan. Shu bois uning ilmiy merosini tazkiranavislik nuqtayi nazaridan o'rganish nafaqat olimning individual ilmiy xizmatlarini belgilash,

balki o'zbek adabiyoti tarixini tadqiq etish metodlarining takomillashuv jarayonini anglash uchun ham muhimdir.

Mazkur tadqiqotimizda o'zbek tazkiranavisligi tarixini ilmiy o'rganishda akademik Botirxon Valixo'jayevning ilmiy faoliyati, tadqiqot usullari va adabiyotshunoslikka qo'shgan hissasini aniqlash maqsadida bir nechta ilmiy-metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida olimning mumtoz adabiyotga oid qarashlari, tarixiy-adabiy manbalarni o'rganish tamoyillari, tazkiralardagi ma'lumotlarni tahlil qilish usullari hamda shoir va adiblar haqidagi ilmiy xulosalari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar. O'zbek tazkiranavisligi tarixiga nazar tashlanganda, tazkiralarning adabiy jarayon haqidagi ma'lumotlarni avloddan avlodga yetkazishda naqadar katta vazifa bajargani ko'zga tashlanadi. Biroq tazkiralarda qayd etilgan har bir ma'lumotni aynan o'z holicha qabul qilish ilmiy tadqiqot uchun yetarli emas. Shu sababli tazkiraviy materiallarni boshqa tarixiy-adabiy manbalar bilan solishtirish, ijodkorning asarlari orqali tekshirish va mavjud ilmiy qarashlarni qayta baholash zarurati yuzaga keladi. Akademik Botirxon Valixo'jayevning ilmiy faoliyati ana shu ehtiyojga javob beradigan tadqiqot tajribasi bilan ajralib turadi. Olimning "O'zbek adabiyotshunosligi tarixi" asari bu borada alohida ilmiy qiymatga ega. Mazkur asarda Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiy, Hasanxoja Nisoriy, Mutribiy Samarqandiy, Vola Dog'istoniy va Rahmatullo Vozeh kabi ijodkorlarning adabiy-tanqidiy qarashlari izchil umumlashtiriladi. Asarning muhim jihati shundaki, undagi ilmiy xulosalar ko'plab adabiy parchalar va qo'lyozma manbalar bilan dalillangan. Natijada tazkiranavislarning individual qarashlari umumiy o'zbek adabiyotshunosligi tarixining tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi.

Valixo'jayevning tazkiranavislikka munosabatida **manbani tekshirish va qiyoslash** tamoyili yaqqol ko'rinadi. Olim biror ijodkorning hayoti yoki ijodiga oid ma'lumotni birgina manba bilan cheklab qo'ymaydi. Lutfiy haqidagi tadqiqotlari bunga yorqin misol bo'la oladi. U shoir tarjimai holiga oid ayrim ma'lumotlarni Alisher Navoiy asarlari bilan bir qatorda Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari va Lutfiy lirikasidagi dalillar bilan qiyoslaydi. "Lutfiyi Shoshiy" tarzidagi qaydga e'tibor qaratib, shoirning tug'ilgan joyi bilan bog'liq masalani ilmiy muammo sifatida o'rta tashlaydi. Muhimi, olim bunday fikrni qat'iy hukm sifatida emas, yangi izlanishlarni talab qiluvchi ilmiy faraz sifatida ilgari suradi.

Olimning Lutfiy tadqiqotlarida yana bir muhim natija - **ijodkorning o'z asarlarini biografik manba sifatida o'rganish** tamoyilidir. Lutfiy g'azallaridagi ayrim baytlar asosida shoirning hayotiy kechinmalari, adabiy muhit bilan munosabati va davr kishilari bilan aloqalariga doir ehtimoliy xulosalar chiqariladi. Shu tariqa tazkira ma'lumotlari ijodkorning o'z poetik merosi bilan to'ldiriladi. Bu yondashuv shoir hayotini faqat tashqi manbalardan emas, balki uning ichki ijodiy dunyosidan kelib chiqib anglash imkonini beradi.

Valixo'jayevning ilmiy metodida **tazkira va matnshunoslikning uzviy aloqasi** ham muhim o'rin egallaydi. "Sensan sevarim" to'plamidagi ayrim matn va janr tasniflariga tanqidiy munosabat bildirishi, Lutfiy she'riyatining g'azal, qasida, ruboiy, to'rtlik, tuyuq, qit'a va fard kabi shakllarini ajratib ko'rsatishi bunga misoldir. Olim mavjud tasnifni shunchaki qabul qilmay, uning ayrim jihatlariga tuzatishlar kiritadi va o'z fikrini matnning o'zi orqali asoslaydi. "Ayting" radifli g'azal tahlilida ham olimning o'ziga xos ilmiy yondashuvi namoyon bo'ladi. U g'azalning umumiy mavzusi, oshiq va ma'shuqa timsollari, uchinchi shaxsning vazifasi, baytlarning o'zaro munosabati va g'azalning kompozitsion yaxlitligini tahlil qiladi. G'azalda 61 ta mustaqil va yordamchi so'z ishlatilgani, ularning katta qismi bir marta qo'llangani haqidagi kuzatishlar shoirning so'z tanlash mahoratini aniq dalillar orqali ko'rsatishga xizmat qiladi. Shu asosda Lutfiy lirikasidagi turkiy leksik qatlamning salmoqli o'rni ham yoritiladi.

Olimning g'azal tahlilida **badiiy obraz va kompozitsiya munosabatiga** ham alohida e'tibor beriladi. Oshiqning faol so'zlovchi timsol, ma'shuqaning esa uning xayolida mavjud obraz sifatida tasvirlanishi g'azalning ichki dramatzimini yuzaga keltiradi. Valixo'jayev ikki timsolning tasvir uslubi bir-birini takrorlamasada, ularning yakunda yaxlit badiiy manzaraga birlashishini ko'rsatadi. Natijada Lutfiy shoirlik mahoratining muhim jihatlaridan biri — zohiriy va botiniy holatlarning uyg'unligi sifatida talqin qilinadi.

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois"ida yuqori baholangan Lutfiy matla'si tahlili ham Valixo'jayevning tazkira ma'lumotlarini badiiy matn bilan bog'lash mahoratini ko'rsatadi. Navoiy tomonidan "mutaazzir ul-javob" deb baholangan matla'dagi ov manzarasini sharhlash orqali olim g'azalning tasviriy imkoniyatlarini ochib beradi. Dilbarning sochi — ovchi qo'lidagi kamandga, oshiq esa ovlangan jonivorga qiyoslanishi orqali shoirning tashbeh va obraz yaratish mahorati asoslanadi. Demak, tazkiradagi Navoiy bahosi Valixo'jayev tadqiqotida konkret poetik tahlil bilan mustahkamlanadi.

Matnshunoslik sohasidagi kuzatishlar ham tadqiqotning muhim natijalaridan biridir. Jumladan, "Gar shona ursa, zulfingga mashshotayi nasim..." baytidagi "tekma" shaklining "tugma" tarzida o'qilishi kerakligi haqidagi fikr olimning matn bilan ishlashdagi sinchkovligini ko'rsatadi. "Tugma" so'zining "tugilgan, chirmashgan" ma'nosida kelishi baytdagi soch tasviri bilan mantiqan uyg'unlashadi. Birgina so'zdagi farq butun bayt mazmuniga ta'sir qilishi mumkinligi haqidagi kuzatuv mumtoz matnni ilmiy nashrga tayyorlashda har bir leksemaning ahamiyatini ko'rsatadi.

Valixo'jayevning **tuyuq va qit'a-tuyuq** haqidagi kuzatishlari ham alohida ilmiy natija sifatida baholanishi mumkin. U tuyuqlarni qit'a tuyuq va to'rtlik tuyuq tarzida farqlab, ularning qofiya tizimi hamda tajnisga asoslangan ma'no qatlamlarini izohlaydi. "Qotila" va "qona" kabi shakldosh birliklarning turli ma'nolarda

qo'llanishini ochish orqali mumtoz she'riyatda shakl va mazmunning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Bunday tahlil tazkiralarda qayd etilgan janriy ma'lumotlarni poetik jihatdan chuqurlashtirishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Botirxon Valixo'jayevning tazkiranavislikka qo'shgan hissasi faqat tazkira mualliflari yoki ularning asarlarini qayd etish bilan chegaralanmaydi. Olim tazkira ma'lumotlarini tarixiy manbalar, qo'lyozmalar, devonlar va badiiy matnlar bilan birgalikda o'rganib, ularning mazmunini yangi ilmiy talqinlar orqali boyitgan. Natijada tazkira o'zbek adabiyoti tarixining passiv ma'lumotlar majmui emas, balki ijodkorlar hayoti, adabiy muhiti, poetik tafakkuri va ijodiy merosini kompleks o'rganishga xizmat qiluvchi faol ilmiy manba sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, Valixo'jayevning ilmiy faoliyatida **Samarqand adabiy muhiti** alohida o'rin tutadi. Uning Navoiy, Lutfiy, Jomiy, Husayn Boyqaro, Shayximbek Suhayliy va boshqa adabiy siymolar haqidagi tadqiqotlari Samarqand va Movarounnahr hududidagi adabiy-ilmiy muhitni tiklashga yordam beradi. Shu jihatdan olimning tazkiranavislikka oid izlanishlari alohida shoirlar biografiyasini o'rganishdan kengroq mazmunga ega bo'lib, butun bir davr adabiy jarayonini tasavvur qilish imkonini beradi.

Umumlashtirganda, tadqiqot natijalari akademik Botirxon Valixo'jayevning o'zbek tazkiranavisligi tarixini ilmiy o'rganishdagi xizmatlarini uch asosiy yo'nalishda ko'rsatish imkonini beradi: birinchidan, tazkiraviy manbalarni tizimlashtirish va ilmiy muomalaga kiritish; ikkinchidan, tazkira ma'lumotlarini boshqa tarixiy-adabiy manbalar va ijodkorlarning o'z asarlari bilan qiyoslash; uchinchidan, tazkira materiallarini matnshunoslik va poetik tahlil orqali chuqurlashtirish. Aynan shu jihatlar Valixo'jayev ilmiy merosining o'zbek tazkiranavisligi tarixidagi o'ziga xos o'rnini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Valixo'jayev B. **O'zbek adabiyotshunosligi tarixi.** – Toshkent: O'zbekiston, 1993.
2. Valixo'jayev B. **O'zbek epik poeziyasi tarixidan.** – Toshkent: Fan, 1974.
3. Valixo'jayev B. **Malik ul-kalom Mavlono Lutfiy.** – Toshkent: Fan, 1999.
4. Valixo'jayev B. **Sulton Husayn Boyqaro – Husayniy she'riyati.** – Toshkent, 2000.
5. Navoiy A. **Majolis un-nafois.** – Toshkent: Fan, 1997.
6. . – Toshkent: Fan, 1971.
7. Mallaev N. **O'zbek adabiyoti tarixi.** – Toshkent: O'qituvchi, 1976.
8. Haqqulov I. **Tasavvuf va she'riyat.** – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
9. Abdullaev V. **O'zbek adabiyoti tarixi.** – Toshkent: O'qituvchi, 1980.

- 10. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari.** 1-jild. – Toshkent: Fan, 2003.
- 11. O‘zbek adabiyoti tarixi.** 5 jildlik. – Toshkent: Fan, 1977–1980.
- 12. Akademik Botirxon Valixo‘jayev va mumtoz adabiyotshunoslik:** ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashri.
- 13. Haqqulov I. Mumtoz adabiyot va ilmiy tafakkur masalalari.** – Toshkent.